

ABU NASR FAROBIYNING “FOZIL ODAMLAR SHAHRI” ASARI: IDEAL JAMIYAT VA INSON KAMOLOTI KONSEPTSIYASI

O‘razboyeva Mahliyo Sherzod qizi

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti
Ijtimoiy-gumanitar fanlar fakulteti sotsiologiya yo‘nalishi 2-bosqich talabasi
mahliyoorazbayeva4@gmail.com*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Sharqning buyuk mutafakkiri Abu Nasr Farobiyning falsafiy merosida alohida o‘rin tutadigan “Fozil odamlar shahri” (Kitob ara’ ahl al-madina al-fodila) asari tahlil qilingan. Asarda ilgari surilgan ideal jamiyat, davlat boshqaruvi prinsiplari, rahbarning universal fazilatlarini, inson kamoloti va oliy baxt-saodatga erishish yo‘llari kabi g‘oyalar zamonaviy siyosiy falsafa va ijtimoiy taraqqiyot nuqtai nazaridan yoritilgan. Maqolada Farobiyning Platon va Arastu ta’limotlarini islomiy tafakkur, xususan, neoplatonizm elementlari bilan uyg‘unlashtirib, o‘ziga xos universal va ierarxik modelni yaratgani ko‘rsatilib o‘tilgan. Fozil shahar konsepsiyasining tuzilishi, uning aholisi tabaqalanishi, adolatning fundamental mohiyati, ilm-ma’rifat va axloqiy tarbiyaning jamiyat farovonligidagi roli atroflicha tahlil etiladi. Shuningdek, asarning o‘rta asrlar islom falsafasiga ko‘rsatgan ta’siri va hozirgi kundagi dolzarbligi, xususan, Yangi O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-siyosiy islohotlar, inson qadri, jamiyat adolati va ma’naviy taraqqiyot tamoyillarini qaror toptirish borasidagi sa’y-harakatlar bilan bevosita bog‘liqligi yoritiladi.*

Kalit so‘zlar: *Abu Nasr Farobiy, “Fozil odamlar shahri”, ideal jamiyat, falsafiy-siyosiy ta’limot, rahbarlik, baxt-saodat, adolat, inson kamoloti, islom falsafasi, Yangi O‘zbekiston, utopik nazariya, neoplatonizm, Aristotelchilik.*

KIRISH

Insoniyat tarixi davomida adolatli, baxtli va farovon jamiyat qurish orzusi buyuk mutafakkirlar va davlat arboblari doimiy ravishda o‘ylantirib kelgan. Sharq uyg‘onish davrining eng yorqin namoyandalaridan biri, “Ikkinchi Muallim” (al-muallim as-saniy) nomi bilan mashhur bo‘lgan Abu Nasr Farobiy (872-950 yy.) ham o‘zining sarmahsul ijodida bu azaliy orzuni falsafiy nuqtai nazardan asoslashga intilgan. Uning “Fozil odamlar shahri” (to‘liq nomi “Kitob ara’ ahl al-madina al-fodila” - “Fozil shahar aholisining fikrlari kitobi”) asari nafaqat o‘rta asr islom falsafasining cho‘qqisi, balki dunyo siyosiy tafakkuri xazinasiga qo‘shilgan ulkan hissa hisoblanadi. Unda ideal jamiyat tuzilishi, uni boshqarish prinsiplari, insonning baxt-saodatga erishish yo‘llari, ilm-ma’rifat va axloqning jamiyat taraqqiyotidagi o‘rni kabi masalalar chuqur tahlil etilgan.

Bugungi kunda Yangi O‘zbekistonni qurish, adolat, qonun ustuvorligi va inson qadrini oliy qadriyat darajasiga ko‘tarish yo‘lidagi ulkan islohotlar zamirida, avvalo, ma’naviy-axloqiy va intellektual salohiyatni yuksaltirishga asoslangan falsafiy qarashlar

yotadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning ko'plab nutqlari, qaror va farmonlarida xalqning farovon hayotini ta'minlash, jamiyatda adolatni mustahkamlash, yoshlarning chuqur bilim olishi va barkamol bo'lib voyaga yetishi uchun sharoitlar yaratish g'oyalari ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmonining "Inson qadrini yuksaltirish va erkin fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirish orqali xalqparvar davlat barpo etish" birinchi ustuvor yo'nalishida inson qadri, uning huquqlari va erkinliklarini ta'minlash, adolatni qaror toptirish masalalari fundamental tamoyil sifatida belgilab berilgan [1]. Bu farmon, insonparvarlik, ma'rifatparvarlik va adolatparvarlik kabi qadriyatlarni davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlari etib belgilash orqali Farobiyning ideal jamiyat haqidagi qarashlariga bevosita urg'u beradi.

Shuningdek, 2020-yil 29-sentabrdagi PQ-4848-sonli "Ta'lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi Qarori esa yosh avlodni ma'rifatli, yuksak axloqli va vatanparvar ruhda tarbiyalash, ularning intellektual salohiyatini oshirishga qaratilgan bo'lib, bu ham Farobiyning ta'lim va kamolot haqidagi ta'limotlari bilan uzviy bog'liqdir [2]. Bu kabi qator farmon va qarorlarda ifodalangan g'oyalar Farobiyning "Fozil odamlar shahri" asaridagi inson kamoloti, adolatli boshqaruv va ma'rifatli jamiyat tushunchalari bilan uzviy bog'liqlik kasb etadi. Farobiyning donishmand rahbar, ilm-ma'rifatga asoslangan jamiyat va baxt-saodatga intiluvchi inson haqidagi falsafiy qarashlari bugungi kunning strategik maqsadlari bilan hamohangdir.

Abu Nasr Farobiy nafaqat faylasuf, balki mantiqchi, matematik, astronom, tibbiyotchi, musiqashunos va tilshunos sifatida ham Sharq ilmiy-falsafiy tafakkuriga ulkan hissa qo'shgan. Uning falsafiy tizimi qadimgi Yunoniston, xususan, Platon va Arastu ta'limotlari, shuningdek, Aleksandriya neoplatonizmi an'analari va islom ilohiyoti elementlarini o'zida mujassam etgan o'ziga xos sintez natijasidir. Farobiy Arastuning asarlarini chuqur o'rganganligi va ularga yozgan sharhlari tufayli "Ikkinchi Muallim" unvoniga sazovor bo'lgan. Ammo u faqatgina izohchi bo'lmay, balki Arastu metodologiyasidan ijodiy foydalanib, o'zining original kosmologik, metafizik va ijtimoiy-siyosiy qarashlarini ilgari surgan [3].

"Fozil odamlar shahri" asari Farobiyning siyosiy falsafasining markaziy qismi bo'lib, u o'zining metafizik va kosmologik qarashlari bilan uzviy bog'liqdir. Unga ko'ra, borliq ierarxik tizim bo'lib, u oliy mavjudotdan, ya'ni Yaratuvchidan (Birinchi Sabab) boshlanib, asta-sekin pasayib, aql (nous), jon (nafs) va nihoyat, materiya olamiga qadar yetib boradi. Bu ierarxik tartib Farobiy nazdida inson jamiyatining tuzilishiga ham bevosita taalluqlidir. Insonlar o'zaro yordam va hamkorlikda yashashga majburlar, chunki ular yakka holda o'z maqsadlariga – oliy baxt-saodatga (sa'ada) erisha olmaydilar. Shahar (davlat) esa insonlarning o'zaro yordamlashishi, kamol topishi va oliy baxtga erishishini ta'minlaydigan muhim ijtimoiy institutdir. Shahar aholisining

hamjihatligi va maqsadlarining mushtarakligi aynan shu oliy baxtga erishishga xizmat qiladi [4].

Asarning asosiy manbalari orasida Platonning “Davlat” va “Qonunlar” asarlari muhim o‘rin tutadi. Farobiy Platonning ideal davlat haqidagi g‘oyalaridan, xususan, faylasuf-hukmdor kontsepsiyasidan, jamiyatning adolatli boshqaruvi va bilimga asoslangan ierarxiya tamoyillaridan ilhomlangan. Biroq, Farobiy Platonning ayrim qarashlarini islom aqidalari va Sharqning ijtimoiy-siyosiy realliklariga moslashtirgan holda qayta ishlagan [5]. Masalan, uning rahbarlik masalasiga yondashuvi Platondagidan farqli o‘laroq, payg‘ambarlik xislatlari va ilohiy vahiyni idrok etish qobiliyati bilan boyitilgan bo‘lib, u rahbarni insonlar orasidagi eng mukammal va oliy intellektual salohiyatga ega shaxs sifatida tasavvur qiladi.

Shu bilan birga, Arastu ta’limoti, xususan, uning mantiqiy usuli, etika va siyosatga doir qarashlari ham Farobiyning ideal shahar konsepsiyasini shakllantirishda muhim rol o‘ynagan [6]. Shunday qilib, “Fozil odamlar shahri” asari Yunon-rim falsafasi, Islom tafakkuri va Farobiyning o‘ziga xos original dunyoqarashining sintezidan iborat bo‘lib, o‘rta asrlar islom tafakkurida siyosiy falsafa janrini yangi bosqichga ko‘targan.

Farobiyning “Fozil odamlar shahri” konsepsiyasining markazida insoniyatning yakuniy maqsadi – baxt-saodatga (sa’ada) erishish g‘oyasi turadi. Bu baxt-saodat oddiy moddiy farovonlik, jismoniy lazzatlar yoki shaxsiy manfaatlardan mutlaqo ustun bo‘lib, ruhiy, intellektual va axloqiy kamolotni anglatadi. Fozil shahar aholisi aynan shu oliy maqsadga intiladi va bir-biriga bu yo‘lda yordam beradi. Farobiy shaharni shunchaki ma’muriy birlik deb emas, balki bir-birini qo‘llab-quvvatlaydigan, umumiy maqsad yo‘lida birgalikda harakat qiladigan, jism va ruh singari uyg‘unlashgan jamoa sifatida tasvirlaydi [7].

1. Rahbarning o‘rni va universal fazilatlar: Fozil shaharning boshlig‘i (ra’is al-awwal) – bu jamiyatning eng oliy va eng mukammal shaxsi bo‘lishi kerak. Farobiy unga Platondagi faylasuf-hukmdorga o‘xshash xususiyatlarni beradi, ammo bunga payg‘ambarlik (vahy) xislatlarini ham qo‘shadi. Rahbar yuksak intellektga, aql-idrokka, kuchli irodaga, odillikka, sabr-toqatga, jasurlikka va xalqqa mehr-shafqatli bo‘lish kabi 12 ta asosiy fazilatga ega bo‘lishi shart [8]. Bu fazilatlar Farobiyning fikricha, insonning aqliy, axloqiy va jismoniy mukammalligining ifodasidir. Masalan, uning uchun rahbar:

- Falsafiy hikmatga va ilohiy bilimga ega bo‘lishi;
- Xotirasi o‘tkir, idrok qobiliyati yuksak bo‘lishi;
- Nutqi ravon va ta’sirchan, ta’lim berishga qodir bo‘lishi;
- Jasoratli, qat’iyatli va irodasi mustahkam bo‘lishi;
- Haqiqatni sevuvchi, yolg‘ondan nafratlanuvchi bo‘lishi;
- O‘z nafsoniy istaklarini jilovlay oladigan, shaxsiy lazzatlarga bog‘lanmagan bo‘lishi;
- Adolatni sevadigan, zulmga nafratlanuvchi bo‘lishi;
- Bag‘rikeng, kechirimli va odamlarga xushmuomala bo‘lishi lozim.

Rahbarning asosiy vazifasi shaharni baxt-saodatga, ya'ni inson kamolotiga eltishdir. Farobiyning fikricha, bunday mukammal rahbar kamdan-kam uchraydi. Agar bunday rahbar topilmasa, unda uning fazilatlariga yaqin bo'lgan bir necha odil shaxslar birgalikda shaharni boshqarishi mumkin, lekin ularning ham umumiy maqsadi bitta bo'lishi shart.

2. Jamiyatning fazilatli tabaqalanishi: Fozil shaharda insonlar o'zlarining tabiiy qobiliyatlari, intellektual darajalari va kasbiy ko'nikmalariga ko'ra turli guruhlariga bo'linadilar. Bu ierarxiya zo'ravonlikka yoki nasl-nasabga emas, balki fazilat, ilm va aqlga asoslanadi. Eng yuqorida rahbar turadi, undan keyin donishmandlar (faylasuflar), olimlar, ruhoniylar (imomlar), san'atkorlar, so'ngra esa tabiblar, mirzolar, va nihoyat, hunarmandlar, dehqonlar kabi oddiy mehnatkashlar joylashadi. Har bir guruhning jamiyatda o'z o'rnini va vazifasi bor bo'lib, ular bir-birini to'ldirgan holda yagona organizm sifatida harakat qiladi. Bu tabaqalanish jamiyatda tartib, uyg'unlik va har bir a'zoning o'z qobiliyatlarini maksimal darajada ro'yobga chiqarishi uchun sharoit yaratadi, chunki har kim o'zi eng yaxshi uddalay oladigan ish bilan shug'ullanadi.

3. Jamiyatning ijtimoiy-siyosiy harmoniyasi: Fozil shaharning asosiy xususiyati uning aholisi o'rtasidagi o'zaro hamkorlik, adolat va umumiy maqsad sari intilishdir. Farobiy shaharni inson organizmiga qiyoslaydi, bunda har bir a'zo o'z vazifasini bajarib, butun organizmning sog'lom ishlashiga xizmat qiladi. Xuddi shunday, fozil shahar aholisi ham o'zaro yordam va hamjihatlikda yashaydi. Bu yerda adolat qonun ustuvorligi bilan ta'minlanadi, ammo qonunlarning o'zi ham oliy fazilatlariga va aqlga asoslanadi. Har bir fuqaro o'z burchini bajarib, o'zining va jamiyatning baxt-saodati uchun harakat qiladi. Bu harmoniya, avvalo, aqlning ustunligi va ilohiy tartibga muvofiq yashash orqali ta'minlanadi.

Farobiy fozil shaharga qarama-qarshi o'laroq, bir qator "nodon shaharlar" turlarini ham batafsil tasvirlaydi. Bu turlar Farobiyning chuqur ijtimoiy-siyosiy tahlilini ko'rsatadi:

- Johil shahar: Aholisi chinakam baxt-saodat nima ekanligini bilmaydi, buning o'rniga moddiy lazratlar, boylik va kuchga intiladi.
- Fasod shahar: Bu shaharning aholisi baxt-saodatning nima ekanligini biladi, ammo amalda yomonlikka moyil bo'lib, o'z bilganlariga zid ish tutadi.
- Adashgan shahar: Bu shahar aholisi falsafiy va diniy adashishlarga berilib, yaxshilikni yomonlik, yomonlikni esa yaxshilik deb biladi.
- O'zgaruvchi shahar: Avval fozil bo'lgan, keyin esa yomonlikka yuz tutgan shahar. Uning rahbari yoki aholisi o'z maqsadlaridan chetga chiqadi.
- Zolim shahar: Aholisi boylikka, shahvatga, hokimiyatga intilib, adolatsizlikka va zulmga asoslangan holda yashaydi.

Bu tahlillar Farobiyning ijtimoiy-siyosiy hodisalarga nafaqat idealistik, balki chuqur realistik yondashganligini va jamiyatdagi mavjud illatlarning ildizlarini aniq ko'rsatib bera olganligini tasdiqlaydi.

Farobiyning falsafasida insonning yakuniy maqsadi – baxt-saodatga erishishdir. Ammo bu baxt-saodat oddiy moddiy lazratlar, jismoniy ehtiyojlarni qondirish yoki shaxsiy manfaatlardan ustundir [9].

1. Baxt-saodatning mohiyati: Farobiyga ko'ra, chinakam baxt-saodat nafsning hirs-havaslarini qondirishda emas, balki ruhning poklanishi, aqlning kamol topishi, ilohiy bilimlarni egallash va oliy haqiqatni bilishda namoyon bo'ladi. Bu – insoniy mukammallikka erishish, ya'ni aqliy va axloqiy fazilatlarni egallash orqali ilohiy tartib bilan uyg'unlashish demakdir. Fozil shahar aholisi birgalikda shu ulug' maqsad sari intiladi. Har bir inson o'zining aql-idrokini charxlab, bilim olish va fazilatli amallar orqali shu baxtga erishadi. Bu baxt insonning o'zini anglash, dunyoni tushunish va borliqning oliy maqsadini idrok etish bilan chambarchas bog'liqdir.

2. Adolatning fundamental o'ri: Adolat Farobiyning fozil shahar konsepsiyasida markaziy va fundamental o'rin tutadi. U nafaqat qonunlarning teng qo'llanilishini, balki jamiyatning barcha a'zolari o'rtasida o'zaro hurmat, teng huquqlilik va ijtimoiy muvozanatni ham anglatadi. Farobiy adolatni Aristotel singari ikki turga ajratadi: taqsimlovchi (distributive) adolat (resurslar, imkoniyatlar va mukofotlarni munosiblik asosida taqsimlash) va tuzatuvchi (corrective) adolat (xatolar, jinoyatlar va nizolarni bartaraf etish). Adolatli rahbar va adolatli qonunlar fozil shaharda tartib va uyg'unlikni ta'minlaydi. Farobiyning adolat g'oyasi universal xarakterga ega bo'lib, u ilohiy adolat tamoyillariga asoslanadi. Uning fikricha, zolim jamiyatda hech qachon chinakam baxt-saodatga erishib bo'lmaydi, chunki adolatsizlik inson ruhini yemiradi va jamiyatni parchalaydi [10].

3. Ta'lim va tarbiyaning markaziy roli: Farobiy fozil shaharni shakllantirishda ilm-ma'rifat va tarbiyaga hal qiluvchi ahamiyat beradi. Uningcha, insonning mukammallikka erishishi faqatgina bilim olish va aql-idrokni rivojlantirish orqali mumkin. Fozil shaharda ta'lim tizimi shunday yo'lga qo'yilgan bo'lishi kerakki, u har bir fuqaroni bilimli, ma'rifatli va axloqli qilib tarbiyalasin. Bu esa, o'z navbatida, ularning jamiyatda o'z o'rnini topishi va umumiy baxt-saodatga hissa qo'shishiga zamin yaratadi.

Tarbiya jarayoni esa bolalikdan boshlanib, umr bo'yi davom etadi. Uning asosiy maqsadi insonni yuksak axloqiy fazilatlar bilan qurollantirish va uni aql-idrok sohibi qilishdir.

Farobiy ta'limni faqatgina ma'lumot berish emas, balki insonning ruhiy va intellektual salohiyatini uyg'otish hamda uni ijtimoiy vazifalarga tayyorlash deb tushunadi. Faqatgina ma'rifatli va tarbiyali jamiyatgina fozil bo'lishga loyiq [11].

Xulosa qilib aytganda, "Fozil odamlar shahri" asari Yangi O'zbekistonni qurish strategiyasi bilan bevosita hamohangdir.

Prezident Sh.M. Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan "Inson qadri uchun" tamoyili, jamiyatda adolatni ta'minlash, ilm-ma'rifatga ustuvor ahamiyat berish, yoshlarni barkamol ruhda tarbiyalash g'oyalari Farobiyning ideal shahar tasavvurida o'zining chuqur falsafiy asosini topadi.

Farobiyning mukammal rahbar haqidagi fikrlari zamonaviy davlat boshqaruvida liderning intellektual salohiyati, axloqiy fazilatlari va xalq bilan muloqotining ahamiyatini ko'rsatsa, fozil shahardagi ta'lim tizimi haqidagi qarashlari ta'lim islohotlarining falsafiy-metodologik asosini boyitadi.

Shuningdek, uning umumiy baxt-saodatga intilish va o'zaro hamkorlik g'oyalari O'zbekistonda mustahkam fuqarolik jamiyatini shakllantirish, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni ta'minlash uchun muhim ma'naviy-axloqiy yo'llanma bo'la oladi.

Bu asar insonparvarlik, adolat va ma'rifat kabi universal qadriyatlarni targ'ib etishda bebaho manba bo'lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Mirziyoyev, Sh. M. (2022). 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 2022-yil 28-yanvar, PF-60-son.

2. Mirziyoyev, Sh. M. (2020). Ta'lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori, 2020-yil 29-sentabr, PQ-4848-son.

3. Farobiy, Abu Nasr. (1993). Fozil odamlar shahri. Tarjimon: M. Hasanov. Toshkent: Xalq merosi.

4. Farobiy, Abu Nasr. (2002). Falsafiy qissalar. Toshkent: Ma'naviyat.

5. Platon. (2014). Davlat. Tarjimon: K. Mahmudov. Toshkent: O'zbekiston.

6. Aristotel. (2018). Siyosat. Tarjimon: J. Jo'rayev. Toshkent: Akademnashr.

7. Umarova, N. H. (2007). Farobiyning ijtimoi-axloqiy qarashlari. Toshkent: O'zbekiston.

8. Walzer, R. (1985). Al-Farabi on the Perfect State: Abu Nasr al-Farabi's Mabadi Ara' Ahl al-Madina al-Fadila. Oxford: Clarendon Press.

9. Mahdi, M. (2001). Alfarabi and the Foundation of Islamic Political Philosophy. Chicago: University of Chicago Press.

10. Al-Farabi, A. N. (2005). Selected Aphorisms. Edited and translated by D. M. Dunlop. Cambridge: Cambridge University Press. (Farobiyning hikmatli so'zlari ham uning siyosiy qarashlarining bir qismi).

11. Daiber, H. (1995). Al-Farabi. In: The Encyclopaedia of Islam, Second Edition, Vol. 7, pp. 774-778. Leiden: E. J. Brill.